

MATEMATIKA DARSLARIDA HAMKORLIKDA METODI

Ismailova Nilufar

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani

55-maktabning matematika fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola darsdan tashqari mashg'ulotlarda Hamkorlikda metodini qo'llash jarayoni va natijalari haqida yozilgan.

KALIT SO'ZLAR: Metod, Zig-zag, BBB, Baliq skleti, Zinama –zina , Hamkorlikda metodi.

Bugun biz fan texnika rivojlangan asrning farzandlariga ta'lim-tarbiya bermoqdamiz .O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish,fanga bo'lgan mehrini oshirish biz pedagoglar uchun eng asosiy vazifa. Biz pedagoglarga dars jarayoni va darsdan keyingi mashg'ulotlarga o'quvchilarning e'tiborini qaratish va ularning darsdagi va darsdan keyingi mashg'ulotlarda vaqtlarini mazmunli o'tkazishimiz uchun turli metodlar kerak bo'ladi .Metod so'zi yunonchadan „methods”- bilish , amaliyotga tadqiq qilish degan tushunchani anglatadi. Bizga avvaldan ma'lum bo'lgan metodlardan masalan; Zig-zag, BBB, Baliq skeleti, Zinama- zina va boshqa metodlardan foydalanib sinfdan tashqari bo'sh o'zlashtiruvchi va iqtidorli o'quvchilar uchun Hamkorlikda metodini tavsiya qilgan bo'lardim. Ushbu metod matematika faniga juda ham mos keladi. Chunki matematika fani juda qiziqarli va jumboqlarga boy fandır ,undagi mantiqiy va fikirlaydigan savollarga 4-sinfdan 11- sinfgacha bo'lgan o'quvchilar birdek fikirlab javob berishadi.

Masalan : Materialni 4 bo'lakka bo'lish uchun 12 daqiqa ketsa , 7 bo'lakka bo'lish uchun qancha vaqt ketadi.

Bu masalani ishlashda ko'pchilik o'quvchilar 12 ni 4 ga bo'lib , 7 ga ko'paytirib qo'yishadi .

$$12:4=3, \quad 3*7= 21 \text{ daqiqa}$$

Aslida esa bu noto'g'ri chunki material 4 ga bo'linishi uchun 3 marta kesiladi ,

1-bo'lak	2-bo'lak	3- bo'lak	4-bo'lak
----------	----------	-----------	----------

Ketgan 12 daqiqa vaqtni 3 ga bo'lishimiz kerak va natijani 6 ga ko'paytirishimiz kerak

Sababi mato 7 bo'lakka bo'linishi uchun 6 marta kesiladi.

$$12: 3 = 4 , \quad 4* 6 = 24 \text{ daqiqa vaqt ketadi.}$$

Bunday mantiqiy savollarga quyi sinf o'quvchilari va yuqori sinf o'quvchilari birdek fikrlaydi ular o'rtasida o'tilmagan mavzu , fo'rmulasini bilmaslik degan muammolar bo'lmaydi.

Manashunday masalalardan yana biriga to'xtalamiz :

Nasinga shifokor 4 ta ukol olishni tavsiya qildi . U har bir ukolni 30 minut vaqt oralig'I bilan olishi kerak. Nasim birinchi ukolini soat 9:00 da olsa, soat nechida u hamma ukollarini olib bo'ladi.

Bu masalaga ham o'quvchilarning ko'pchiligi 11:00 deb javob berishadi. Ular 30 minutni 4 ga ko'paytirib 2 soat hisoblashib 9:00 ga qo'shib 11:00 chiqarishadi.

Masalaning javobi esa 10:30 bo'ladi. Chunki 1-ukol 9:00da , 2-ukol 9:30 da, 3- ukol 10: 00 da , 4- ukol esa 10:30 da olib bo'linadi .

Manashunday masalalar va qiziqarli matematik o'yinlar uchun bu metodimiz juda qulay hisoblanadi.

O'quvchilar to'garak a'zolari soniga qarab tasodifiy guruhlariga ajratiladi. Sinflar kesimida raqamlar tarqatiladi bir xil raqam tushgan o'quvchilar bitta guruhga

yig'iladi guruhlariga bo'linadi har bir guruhga 4-5-6-7-8-9-10-11- sinflardan o'quvchilar tushadi. Guruhlar joylashib olgach jamoa sardorini tanlashadi.

O'qituvchi tomonidan tuzulgan shartlar e'lon qilinadi. Jamoa sardorlari qaysi shartga qaysi o'quvchi chiqishini o'zlari yashirin holatda hal qilishadi. O'quvchilar soniga asosan barcha o'quvchilarga birdek mos keladigan shartlar qo'yiladi.

Masalan :

1-shart. Xotira mashqi:

2-shart. Ko'zi bog'langan holda geometrik shakllar chizish;

3-shart. Qiziqarli savollar

4-shart. Mantiqiy masalalar

5-shart. Fikrlaydigan savollar

Asosan bu metodimiz mantiqiy fikrlab topiladigan matematik masalalar va savollarga qo'llanilsa natijasi sezilarli bo'ladi.

Metodning ahamiyatli jihati shundaki shartlar umumiy bo'lgani uchun shart bajarish jarayonida har xil sinf o'quvchilari o'zaro kurashishadi, bu muhit kichik sinf o'quvchilarida o'ziga ishonchni oshiradi va sinflar kesimida dars mashg'ulotlaridan tashqari holatlarda o'zaro fikr almashishlariga zamin yaratib beradi. Yani o'quvchilar o'qituvchining aralashuvisiz o'zaro hamkorlik o'rnatib borishadi. Men o'qituvchi sifatida bu metodni amaliyotda joriy etib kelmoqdaman . Hozirda yuqori sinf o'quvchilarimning quyi sinflardan o'z shogirtlari bor va o'z bilimlarini mustahkamlab borishmoqda.

XULOSA: xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki o'quvchilar yangi bilimlarni eshitganda, ko'rganda, yozganda ma'lum bir darajada bilimlarni egallashadi . Lekin ular o'zaro fikr almashganda eng yuqori natijadagi bilimlarni egallashadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.A. Mirzahmedov. O'quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash. Toshkent, "O'qituvchi", 1993.
2. T.A. Azlarov. Matematik analiz asoslari . 3- nashr "Universitet", Toshkent, 1996.
3. [Www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz) -Xalq ta'limi vazirligining axborot ta'lim portal.
4. [Www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)-Multimedia markazi axborot ta'lim portal.
5. Pimtests - O'quvchilarni Al –Xorazmiy va Prezident maktabiga tayyorlov telegram kanali.